



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA FE‘L-ATVOR BILDIRUVCHI SO‘ZLAR

CHARACTER-DESCRIPTIVE LEXICAL UNITS IN “QUTADG‘U BILIG”

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Z.T.Xolmanova

Ra'no Abduxamidova Atxamboy qizi

ToshDO 'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs

ranoabduxamidova0215@gmail.com

[DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026/FFJT9081](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/FFJT9081)

Annotatsiya. *Ushbu maqola Yusuf Xos Hojibning o'n birinchi asrga oid qomusiy yodgorligi bo'lmish “Qutadg'u bilig” dostonida fe'l-atvor bildiruvchi so'zlarning lingvistik va semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada “Qutadg'u bilig” asaridagi insonning ijobiy (adolat, bilimdonlik, saxovat) va salbiy (jaholat, hasad, yolg'onchilik) xarakterini ifodalash uchun ishlatilgan so'zlarning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mazkur leksik birliklarning dostonidagi didaktik va axloqiy yo'nalishni ochib berishdagi roli ham tadqiq etiladi. Maqolada “Qutadg'u bilig” asarida fe'l-atvor tushunchasini ifodalashning o'ziga xos xususiyatlari, ushbu so'zlarning semantik maydoni va ularning qo'llanish kontekstlari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *“Qutadg'u bilig”, Yusuf Xos Hojib, fe'l-atvor, axloqiy qadriyatlar, ideal hukmdor, adolatli boshqaruv, yetuklik, didaktika.*

Annotation. *This article analyzes the linguistic and semantic features of words denoting behavior in the epic “Qutadgu bilig” an encyclopedic masterpiece by Yusuf Khas Hajib from the eleventh century. The study examines the role and significance of words used to express positive (such as justice, wisdom, and generosity) and negative (ignorance, envy, lying) human characteristics in “Qutadgu bilig”. Additionally, it investigates how these lexical units contribute to revealing the didactic and moral aspects of the epic. The article identifies the unique features of expressing behavioral concepts in “Qutadgu bilig” explores the semantic field of these words, and analyzes the contexts in which they are used.*

Keywords: *“Kutadgu bilig”, Yusuf Khas Hajib, character, moral values, ideal ruler, just governance, maturity, didactics.*

Har bir xalqning madaniy taraqqiyoti, avvalo, uning tili va adabiy yodgorliklarida o'z aksini topadi. Til – xalq ruhiy olamining, tafakkurining, tarixiy tajribasi va ma'naviy dunyosining ko'zguisidir. Xalqning hayoti, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari ham til orqali avloddan avlodga uzatiladi. Shu ma'noda, qadimgi turkiy adabiy yodgorliklar, xususan, Yusuf Xos Hojib

qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” asari o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy manzarasini, shuningdek, turkiy xalqlarning til boyligini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Yusuf Xos Hojib ushbu asarni Qoraxoniylar davlati hukmdoriga atab yozgan bo‘lib, asarda adolatli boshqaruvning nazariy asoslari, insoniy fazilatlar, axloqiy tamoyillar haqida so‘z boradi. “Qutadg‘u bilig” mazmuni va shakli bilan nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlar davomida ham turkiy xalqlar adabiyoti va madaniyatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Asarda insonga xos fazilatlar va nuqsonlar, yaxshi va yomon odatlar, davlat boshqaruvi uchun zarur bo‘lgan axloqiy-etik me‘yorlar keng va tizimli tarzda tasvirlangan. Ayniqsa, fe‘l-atvor bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanilishi orqali shaxslarning ichki dunyosi, ularning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Ushbu birliklar o‘z zamonasining axloqiy qarashlari, odob-axloq me‘yorlari va madaniy qadriyatlarini ifodalashda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan:

Elig aydi ezgu talu nang turur,

Talu nangni tuyshi talular qulur [Юсуф Хос Ҳожиб., 1971].

Ushbu bayt “Elig aytdi: ezgu yetuk narsadur, Yetuk ishni doim yetuklar qilur” tarzida hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tabdil qilinadi. Baytning mazmuniga ko‘ra, “ezgu” tushunchasi yetuklik, mukammallik ma‘nosini anglatadi. Muallifning fikricha, har qanday yetuk ishni amalga oshirishga faqatgina malakali va o‘z ishining ustasi bo‘lgan insonlar qodir. Bu yerda “yetuklik” tushunchasi nafaqat kasbiy mahoratni, balki axloqiy kamolotni ham o‘z ichiga oladi. Demak, jamiyatning yuksalishi va farovonligi uchun har bir sohada o‘z ishining ustasi bo‘lgan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxslarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Qalu ezgu bo‘lsa budun bashchisi

Qamug‘ ezgu bo‘ldi aning ishchisi [Юсуф Хос Ҳожиб., 1971].

Mazkur bayt “Agar ezgu bo‘lsa avom ishchisi, Jami ezgu bo‘lgay uning ishchisi” degan mazmunni beradi. Bu misrada davlat boshqaruvi va rahbarning o‘rni masalasiga e‘tibor qaratiladi. Agar jamoaning, xalqning boshida turgan rahbar (“bashchi”) ezgu, adolatli va to‘g‘ri yo‘ldan boradigan bo‘lsa, uning qo‘l ostidagi barcha xodimlar (“ishchi”) ham shunday fazilatlarga ega bo‘lishi tabiiy. Bu yerda rahbarning shaxsiy fazilatlari uning butun jamoasiga ta‘sir etishi ta‘kidlanadi.

Esiz qilmag‘il san, e qilqi tuzun,

Bu kun ezgu qilg‘il qilinchin so‘zun [Юсуф Хос Ҳожиб., 1971].

Bu misralarda insonning xulq-odobi va uning jamiyatga ta‘siri masalasi ko‘tariladi. Muallif har bir insonga murojaat qilib, yomonlikdan qochishga va doimo yaxshi amallar qilishga chaqiradi. “Qilqi tuzun” (xulqi toza, yaxshi) birikmasi inson ichki dunyosining go‘zalligini va bu go‘zallikning tashqi harakatlarda ham namoyon bo‘lishi zarurligini ifodalaydi.

Jafasiz vafalig‘ tilese qutun,



Yuzi ko'r qilichi vafa - ul qutun [Юсуф Хос Ҳожиб., 1971].

Mazkur baytda shoir Tavg'ach ulug' Bug'ro Qoraxonning ideal hukmdor sifatlarini ta'riflamoqda: “Jafosiz, vafoli, qutli (kishi) istasang, Yuziga boq, qilmishi vafo va baxtdir”. Baytdagi “jafasiz vafalig” sifatleri hukmdorning o'z xalqiga sodiq va adolatli ekanligini bildiradi. “Qutun” so'zi esa “davlat”, “saodat”, “baxt” ma'nolarini anglatib, hukmdorning saltanat taxtida bo'lishi mamlakatga farovonlik olib kelishiga ishora qiladi.

Baytning davomi yanada metaforik va obrazlidir, ya'ni “Yuzi ko'r qilichi vafa - ul qutun” misrasi hukmdorning tashqi ko'rinishi va davlat boshqaruvidagi ishlari uning sadoqatini, davlatga keltiradigan baxtning yaqqol namunasi ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur misrada “yuzi ko'r” birikmasi hukmdorning zohiriy sifatleri, uning obro'si va nufuzini ifodalasa, “qilichi vafa” birikmasi uning adolatli farmon va hukmlari, qonun ustuvorligini ta'minlash orqali sadoqatini namoyon etishini anglatadi. Demak, hukmdorning tashqi ko'rinishi ham, mamlakatni boshqarishdagi ichki siyosati ham davlat uchun barqarorlik va farovonlik manbayi hisoblanadi.

Tuzun qilqi alchaq bag'irsaq ko'ngul,

Ko'rung tese kel muni ko'r amul [Юсуф Хос Ҳожиб., 1971].

Yusuf Xos Hojib aytadiki: “Xushfe'l, muloyim, mehribon ko'ngil (kishini) ko'rmoq istasang, kel, buni ko'r, taskin top”. Bunda shoir hukmdorning insoniy sifatlariga urg'u beradi. Parchada qo'llangan “tuzun qilqi” birikmasi hukmdorning xushxulq, odobli, muloyim tabiatini ifodalaydi. “Alchaq bag'irsaq ko'ngul” iborasi esa uning kamtarin, mehribon, saxovatli va oliyjanob qalb egasi ekanligini ta'kidlaydi. “Bag'irsaq” so'zi o'zbek tilida “bag'ri keng” ma'nosiga yaqin bo'lib, mazkur misrada hukmdorning sabr-toqatliligi, kechirimliligi, xalq dardiga hamdard va yelkadosh bo'lish kabi xislatlarini ifodalaydi. “Ko'ngul” so'zi “qalb”, “yurak” ma'nolarini anglatib, barcha ijobiy fazilatlarning manbayi sifatida ko'rsatiladi. “Ko'rung tese kel muni ko'r amul” misrasi esa o'quvchini hukmdorning ushbu fazilatlariga bevosita guvoh bo'lishga chaqiradi. “Ko'rung tese” so'zi “ko'rmoq istasang” degan ma'noni bildirib, hukmdorning yuqorida sanab o'tilgan ijobiy sifatleri shunchaki madh emas, balki har bir inson bevosita ko'rishi mumkin bo'lgan haqiqat ekanligini uqtiradi. Ushbu bayt Qoraxoniylar davri adabiyotida hukmdor shaxsiyatiga berilgan bahoning muhim namunasi. Unda hukmdorning nafaqat davlat boshqaruvi uchun zarur bo'lgan adolatlilik va botirlik kabi sifatleri, balki insoniy fazilatlari – xushxulqligi, kamtarligi, mehribonligi ham alohida ta'kidlanadi. Bu o'sha davrda hukmdorning xalq bilan yaqin munosabatda bo'lishi, ularning ehtiyojlariga e'tiborli bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Baytdagi “tuzun qilqi” va “alchaq bag'irsaq ko'ngul” kabi sifatlar hukmdorning ideal obrazini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Yuri ey biligsiz igingni ota,

Biligsiz otin - sen yo bilge quta [Юсуф Хос Ҳожиб., 1971].



Baytning ma'nosi: “Kel, ey bilimsiz, dardingga davo qil, bilimsiz (bo'lsang) – tubansan, dono (bo'lsang) – baxtlisan”. Bilim olishning fazilatiga bag'ishlangan ushbu bayt “Qutadg'u bilig” kabi pand-nasihathunahidagi asarlarga xos bo'lib, bilimning inson hayotidagi muhim o'rni va ahamiyatini qisqa, ammo ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Baytning birinchi misrasida Yusuf Xos Hojib bilimsiz insonga: “Yuri ey biligsiz igingni ota”, – deya murojaat qiladi, ya'ni uni o'z dardiga davo topishga chaqiradi. Baytdagi “Igingni ota” iborasi “dardingga davo qil”, “kasaligingni davola” degan ma'noni bildiradi. Bunda “ig” so'zi nafaqat jismoniy kasallikni, balki bilimsizlikdan kelib chiqadigan ruhiy azob, tushkunlik, hayotda chorasiz qolish kabi ma'naviy qiyinchiliklarni ham anglatishi mumkin. Demak, misra bilimsizlik inson uchun bir dard ekanligini va undan qutulish zarurligini uqtiradi.

Baytning ikkinchi misrasi esa bilimli va bilimsiz insonning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini taqqoslaydi: “Biligsiz otin – sen yo bilge quta”. “Otin” so'zi bu o'rinda “past”, “tuban”, “qul” ma'nolarida qo'llangan, bu esa bilimsiz insonning jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligiga ishora qiladi. “Sen yo bilge quta” esa “dono bo'lsang – baxtlisan” degan ma'noni beradi. Demak, shoir ushbu bayt orqali bilimli bo'lish insonni yuksaklikka, baxtga erishtirishini ta'kidlaydi. Baytning qisqa va lo'nda shakli, undagi obrazli ifodalar pand-nasihathunajannirning xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Muallif o'quvchiga bevosita murojaat qilib, unga bilimning qanchalik zarurligi haqidagi fikrni uqtirishga harakat qiladi. “Otin” va “quta” so'zlarining qarama-qarshi ma'nolarda qo'llanilishi ham fikrning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Mazkur asarda muallifning o'ziga aytgan uzri ham diqqatga sazovor qismlardan biri hisoblanadi:

Budun tili yavlaq seni so'zlehey,

Kishi qilqi kirtu etingni yegey[Юсуф Хос Ҳожиб.,1971].

Yusuf Xos Hojibning o'ziga nisbatan aytgan ushbu bayti insonning jamiyatdagi o'rni, unga bo'lgan munosabat va insoniy illatlarning salbiy ta'siri haqidagi chuqur fikrlarni o'zida mujassam etadi, inson tabiatining murakkabligiga ishora qiladi. “Budun tili yavlaq seni so'zlehey” misrasi jamiyatdagi muloqot muhitining salbiy tomonini ochib beradi. “Budun tili” birikmasi “xalqning tili” degan ma'noni anglatib, insonning o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy muhitdagi gap-so'zlar, mish-mishlar va muhokamalarga ishora qiladi. “Yavlaq” so'zi esa “yomon”, “razil”, “qabih” ma'nolarini anglatib, bu parchada xalqning tilidan chiqadigan so'zlarning noo'rin tanqid, hatto g'iybat va bo'hton xarakterida bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi. “Seni so'zlehey” fe'li esa “sen haqingda gapiradi” ma'nosini bildirib, xalqning doimiy ravishda muallif haqida turli xil (ko'pincha, salbiy) fikrlar bildirishini ta'kidlaydi. Misra, umuman olganda, insonning jamiyatdagi obro'si va faoliyati doimo atrofdagilarning muhokamasi ostida bo'lishini va bu muhokamalarning aksariyat hollarda adolatsiz bo'lishi mumkinligini ifoda etadi.

“Kishi qilqi kirtu etingni yegey” misrasi esa inson tabiatidagi hasad va shu kabi yomon illatlarning vayronkor jihatlarini tasvirlaydi. Misradagi “Etingni yegey” fe’li metaforik ma’nodagi qo‘llangan bo‘lib, “sening etingni yeydi”, ya’ni “senga zarar yetkazadi”, “seni yo‘q qilishga harakat qiladi” kabi ma’nolarni anglatadi. Bu ibora insonlarning hasadi ruhiy azob berishi bilan birga amalda ham zarar keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Qutadg‘u bilig” dostonida fe’l-atvor bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanilishi asarning didaktik va axloqiy yo‘nalishini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda “ezgu”, “tuzun qilqi”, “alchaq bag‘irsaq ko‘ngul” kabi ijobiy sifatlar adolat, bilimdonlik, mehribonlik kabi fazilatlarni tasvirlashda qo‘llanilgan bo‘lsa, “biligsiz”, “kirtu” kabi so‘zlar jaholat, hasad kabi illatlarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Dostonda fe’l-atvor leksikasining tahlili muallifning ideal inson va ideal jamiyat haqidagi tasavvurlarini anglash imkonini beradi. Adolatli hukmdor, bilimli va axloqli fuqaro obrazlari aynan fe’l-atvor bildiruvchi so‘zlar orqali yaratilgan. Shuningdek, asarda insonning jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyati, o‘zaro munosabatlari ham ushbu leksik birliklar vositasida yoritilgan.

Adabiyotlar:

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (нашрга тайёрловчи Каримов Қ.) – Тошкент:Фан,1971.
2. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. *American Journal of Philological Sciences*, 5(03), 119-12
3. Komilova, G. R. (2024). *Qadriyat va bahoning lingvistik talqini*. O‘zbekiston: til va madaniyat. *Lingvistika*, (4), 46–51.
4. Mavlyanov, S. (2022). O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar. *Uzbekistan: Language and Culture*, 1(1).
5. Muhammadiyeva, D. (2025). PROBLEMS RELATED TO THE TRANSLATIONS OF “BOBURNOMA” IN TURKIC LANGUAGES. *Türkoloji*, 121, 65-84. <https://doi.org/10.59358/ayt.1619264>
6. O‘razova, I. Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi.[Internet manba]. URL: <https://zenodo.org/records/11108578> (Murojaat etilgan sana: 17. 09. 2024).
7. Sirojiddinov, S. (2011). Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik
8. SIROJIDDINOV, S. (2023). BABUR: A RULER, POET AND ENCYCLOPEDIIST SCIENTIST. *Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабур в развитии восточной государственности и культуры*, 1(1)
9. Z. Xolmanova. [Ichki nutq–“Boburnoma” matnining o ‘ziga xosligini ta’minlovchi omil](#). - Uzbekistan: Language and Culture, 2025
10. X Mushtariy "[Khutadgu bilig](#)" related to lexical medicine - Iranian Journal of Social Sciences and Humanities ..., 2017